

## SHARTNOMA № 64

Paxtabod shahri

«13» sentyabr 2022 yil

O‘z nizomiga asosan faoliyat yurituvchi «**Matonat shijoat nuri**» MCHJ bundan buyon mahsulot yetkazib beruvchi deb yuritiladi, uning nomidan rahbari **O.Ibroximov** bir tomondan va **Paxtaobod tuman xalq ta’limi bo‘limi** nomidan uning rahbari **A.O’smonov** ikkinchi tomondan bundan buyon «Buyurtmachi» deb yuritiladi, quyidagi mazmunda shartnoma tuzdik.

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1 «Mahsulot yetkazib beruvchi» o‘ziga tegishli bo‘lgan va kelishilgan quyidagi hizmatlarni taklif etadi, «Buyurtmachi» esa ushbu hizmatlarni qabul qilib olib, hisob kitob qiladi.
- 1.2 «Mahsulot yetkazib beruvchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning texnik topshirik xujjatlariga hamda **“30” avgust 2022 yil “08” sentyabr 2022 yil kungi № 22110012144862-lotga** asosan maktablarning ta’miri uchun oq va pol uchun bo‘yoqlarni yetkazib beradi.

№	Mahsulot nomi	O‘lchov birligi	Miq-dori	Narhi	Umumiy qiymati
1	Kraska emal (oq)	kg	3.000	16.400	49.200.000
2	Kraska emal (pol uchun)	kg	3.000	16.400	49.200.000
	<b>JAMI:</b>				<b>98.400.000</b>

- 1.2. Shartnomaning umumiy summasi: **98.400.000 (To‘qson sakkiz million to‘rt yuz ming)** so‘mni tashkil etadi.

### 2. SHARTNOMA BAHOSI VA HISOB KITOB TARTIBI

- 2.1. Hisob kitob «Buyurtmachi» tomonidan pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.
- 2.2. Shartnoma kuchga kirib, tegishli g‘aznachilik tizimidan ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng 5 bank ish kunidan «Buyurtmachi» tavarlarining umumiy summasining 30% oldindan «Tovar yetkazib beruvchi» ning hisob raqamiga o‘tkazib beradi.
- 2.3. «Buyurtmachi» tomonidan 30% oldindan to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng «Tovar yetkazib beruvchi» 3 ish kuni davomida mazkur shartnomada ko‘rsatilgan miqdorda va narhlarda tavarlarini «Buyurtmachi» ga yetkazib beradi.

### 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 3.1. Tomonlar boshqa tomonning xujjatini rasmiylashtirmasligi yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirish uchun javobgar emasdir.
- 3.2. «Tovar yetkazib beruvchi» huquqlari va majburiyatlari:



- Berilgan buyurtma nomiga berilgan «Tovarlarni» qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishi talab qilish huquqiga ega.
- Agar tovarlarni yetkazib berish ishlarini bajarib berish jarayonida «Yetkazib beruvchi» shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l ko'ygani bo'lsa «Buyurtmachi» ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 30 kun muddatda bepul tuzatib berishga majburdir.

### 3.3. «Buyurtmachi» huquqlari va majburiyatlari:

- Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar «Buyurtmachi» yoki uchinchi shahslar tomonidan tovar harajatlarini qoplanishini talab qilishga:
- Mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplanishini «Tovar yetkazib beruvchi» dan talab qilish huquqiga ega.

## 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. «Mahsulotlar» ni belgilangan vaqtda bajarib bermaganligi uchun «Tovar yetkazib beruvchi» «Buyurtmachi» ga o'tib ketgan muddatning har bir kuni uchun bajarib bermaganligi uchun mahsulotning qiymatidan 0,5% miqdorida, lekin shartnomaning 50%dan ortmagan miqdorida jarima to'laydi.

4.2. «Tovarlarni» ni yetkazib berish bo'yicha shartnomada tuzilgan majburiyatlarini bajarilishi rad etilganligi uchun «Buyurtmachi» ga belgilangan ustamalardan tashqari yetkazib berilishi kerak bo'lgan «Tovarlarni» shartnomaning 20% miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari «Buyurtmachi» ga «Tovarlarni» ni yetkazib bermasligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

4.3. «Tovarlarni» ni yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'la yetkazib berilmagan taqdirda «Bajaruvchi» «Buyurtmachiga» kechiktirilgan har bir kun uchun majburiy bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida penya to'laydi. Biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan «Tovarlarni» qiymatini 50% ortiq bo'lmasligi kerak.

## 5. NIZOLARNI HAL QILISH

5.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra mustaqil ravishda iqtisodiy sudga hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Kelishuv bilan hal qilinmaydigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga asosan belgilanadigan tartibda hal qilinadi.

## 6. FORS-MAJOR

6.1. Tomonlarga bog'liq bo'lmagan holatlar yong'in, suv toshqin shu kabi boshqa holatlarda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, agar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda majburiyat bajarilmaganligi uchun tomonlar javobgarligidan ozod etiladi.



## 7. BOSHQA SHARTLAR

- 7.1. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.
- 7.2. Mazkur shartnomaga oid barcha o'zgartirish va ko'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolagan bo'lsa hakikiy hisoblanadi.
- 7.3. Mazkur shartnoma 2 nushada tuzilgan bo'lib har biri bir hil yuridik kuchga egadir.

## 8. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI

- 8.1. Shartnoma imzolanib hududiy G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.

## 9. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI

### «SOTUVCHI»

«Matonat shijoat nuri» MCHJ

Manzil: Paxtaobod tuman

Ovushqa MFY

X/r: 20208000105036612001

Bank: Agro bank Paxtaobod

MFO: 00031 INN: 306 235 794

### «BUYURTMACHI»

«Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi»

Adres: Kelajak ovozi ko'chasi

X/R: 100022860032327092100075062

INN: 200 294 928

Markaziy bank Toshkent shahar XKKM

YAgona g'azna x/v:

23402000300100001010

MFO: 00014 INN: 201 122 919

Moliya Vazrligi Yagona G'aznachiligi

Rahbar:

O.Ibroximov

Rahbar:

A.O'smonov



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

**№EI65070133**

1.Loyihaning turi **-Shartnoma**

2.Loyihaning nomi-**Maxsulot yetkazib berish to'g'risida**

O'z nizomiga asosan faoliyat yurituvchi «Matonat shijoat nuri» MCHJ bundan buyon mahsulot yetkazib beruvchi deb yuritiladi, uning nomidan rahbari O.Ibroximov bir tomondan va Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi nomidan uning rahbari A.O'smonov ikkinchi tomondan bundan buyon «Buyurtmachi» deb yuritiladi, quyidagi mazmunda shartnoma tuzdik.

**SHARTNOMA PREDMETI**

«Mahsulot yetkazib beruvchi» o'ziga tegishli bo'lgan va kelishilgan quydagi hizmatlarni taklif etadi, «Buyurtmachi» esa ushbu hizmatlarni qabul qilib olib, hisob kitob qiladi.

1.2«Mahsulot yetkazib beruvchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning texnik topshirik xujjatlariga hamda **“30” avgust 2022 yil “08” sentyabr 2022 yil kungi № 22110012144862-lotga** asosan maktablarning ta'miri uchun oq va pol uchun bo'yoqlarni yetkazib beradi.

Shartnomaning umumiy summasi: **98.400.000 (To'qson sakkiz million to'rt yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

Asos: : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot  
Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan  
**9.09.2022-yil**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

13.09.2022-yil

**Adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti:**



**A.Mannapov**